

IJTIMOYIY TADBIRKORLIKNING MAZMUN-MOHİYATI VA JAMIYAT RIVOJIDAGI AMALIY AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18136531>

Akramjonov Qurbonali

FarDu 1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning jamiyat rivojidagi amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy asoslari, uning anʼanaviy tadbirkorlikdan farqli jihatlari hamda ijtimoiy muammolarni hal etishdagi oʻrni ochib berildi. Maqolada ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining barqaror iqtisodiy mexanizm sifatidagi ahamiyati, ijtimoiy qiymat yaratishdagi roli va ijtimoiy taʼsir koʻrsatish imkoniyatlari yoritildi. Xalqaro tashkilotlar va yetakchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida ijtimoiy tadbirkorlikning bandlikni taʼminlash, zaif ijtimoiy guruhlarini qoʻllab-quvvatlash hamda inklyuziv rivojlanishni taʼminlashdagi samaradorligi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish boʻyicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit soʻzlar

ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy innovatsiya, ijtimoiy muammolar, barqaror rivojlanish, inklyuziv iqtisodiyot, ijtimoiy taʼsir, bandlik, ijtimoiy himoya

THE ESSENCE AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN SOCIETAL DEVELOPMENT

Akramjonov Qurbonali

First-year Master's student,

Fergana State University

Annotation

This article provides a scientific analysis of the essence and content of the concept of social entrepreneurship, as well as its practical significance in societal development. The study examines the theoretical foundations of social entrepreneurship, its distinguishing features compared to traditional

entrepreneurship, and its role in addressing social problems. The article highlights the importance of social entrepreneurship as a sustainable economic mechanism, its role in creating social value, and its potential to generate social impact. Based on research by international organizations and leading scholars, the effectiveness of social entrepreneurship in promoting employment, supporting vulnerable social groups, and fostering inclusive development is substantiated. The research findings are significant for developing scientific and practical recommendations for advancing social entrepreneurship.

Keywords

social entrepreneurship, social innovation, social problems, sustainable development, inclusive economy, social impact, employment, social protection.

СУЩНОСТЬ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Акрамжонов Курбонали

магистрант 1 курса,

Аннотация

В данной статье с научной точки зрения анализируются сущность и содержание понятия социального предпринимательства, а также его практическое значение в развитии общества. В ходе исследования раскрываются теоретические основы социального предпринимательства, его отличительные особенности по сравнению с традиционным предпринимательством и роль в решении социальных проблем. В статье освещается значение социального предпринимательства как устойчивого экономического механизма, его роль в создании социальной ценности и возможности оказания социального воздействия. На основе научных исследований международных организаций и ведущих учёных обоснована эффективность социального предпринимательства в обеспечении занятости, поддержке уязвимых социальных групп и содействии инклюзивному развитию. Результаты исследования имеют важное значение для разработки научно-практических рекомендаций по развитию социального предпринимательства.

Ключевые слова

социальное предпринимательство, социальные инновации, социальные проблемы, устойчивое развитие, инклюзивная экономика, социальное воздействие, занятость, социальная защита.

KIRISH. Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat oldida turgan ijtimoiy muammolar — kambag'allik, ishsizlik, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga integratsiyasi, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan teng foydalanish masalalari tobora dolzarblashib bormoqda. Ushbu muammolarni faqatgina davlat yoki xayriya tashkilotlari doirasida hal etish yetarli bo'lmay, innovatsion va barqaror yondashuvlarni talab qilmoqda. Ana shunday sharoitda ijtimoiy tadbirkorlik jamiyat manfaatlarini iqtisodiy faoliyat bilan uyg'unlashtiruvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik an'anaviy tadbirkorlikdan farqli o'laroq, foyda olishni asosiy maqsad sifatida emas, balki ijtimoiy muammolarni hal etish vositasi sifatida ko'radi. Bu yo'nalish aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash hamda inklyuziv iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlik barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiruvchi muhim institutlardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi alohida e'tibor markaziga chiqmoqda. Ayniqsa, zaif ijtimoiy guruhlar — nogironligi bo'lgan shaxslar, xotin-qizlar, yoshlar va kam ta'minlangan oilalar uchun yangi imkoniyatlar yaratishda ijtimoiy tadbirkorlik muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois mazkur maqolada ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasining nazariy asoslari, uning jamiyat rivojidagi o'rni hamda amaliy ahamiyatini tahlil qilish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqot ijtimoiy tadbirkorlikning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda sifat va miqdoriy tahlil elementlarini uyg'unlashtirgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus metodlaridan foydalanildi. Xususan, nazariy tahlil va sintez metodlari yordamida ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasining ilmiy talqinlari, uning an'anaviy tadbirkorlikdan farqli jihatlari hamda konseptual asoslari o'rganildi. Taqqoslash metodi orqali turli mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy tadbirkorlik modellari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Keyingi yillarda tadbirkor tushunchasi nafaqat tor doiradagi, balki dunyo talablari darajasidagi, o'zbek mahsulotlarini jahon bozoriga

olib chiqadigan, keng turdagi faoliyat bilan shug'ullanib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadigan ishbilarmonlarga nisbatan qo'llanila boshlandi. Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik yo'nalishi tom ma'noda yangi bosqichga ko'tarildi. O'z-o'zidan savol tug'iladi ijtimoiy tadbirkorlik nima ?,uning mazmun-mohiyati nimalardan iborat? Ushbu savollarga atroflicha javob bersak.

Ijtimoiy tadbirkorlik – bu pul topishdan ko'ra jamiyatga foyda keltirishga qaratilgan biznes modeli bo'lib, an'anaviy tadbirkorlikdan asosiy farqi shundaki, u daromadni shaxsiy manfaatlar uchun emas, balki ijtimoiy muammolarni (qashshoqlik, sog'liqni saqlash, ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish) hal qilish uchun ishlatadi, ya'ni ijtimoiy missiyani tijorat faoliyati bilan birga olib boradi, va favqulodda holatlarda ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda muhim rol o'ynaydi[1].

Asosiy Xususiyatlari quyidagilardan iborat :

1.Ijtimoiy missiya birinchi va asosiy maqsad – jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatish (masalan, nogironlar uchun ish o'rinlari yaratish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish).

2.Barqarorlik: Daromad olish orqali o'zini-o'zi qoplash va ijtimoiy loyihani davom ettirishga qodir bo'lish.

3.Innovatsiya: Muammolarni hal qilishda yangi va samarali yondashuvlardan foydalanish.

4.Tijorat faoliyati: An'anaviy biznes singari mahsulot yoki xizmatlarni sotadi, lekin undan olingan foyda shaxsiy boyishga emas, balki ijtimoiy maqsadlarga yo'naltiriladi.

5.Jamiyat bilan hamkorlik: Ko'pincha jamiyatning o'zi, mahalliy hamjamiyatlar bilan birga ishlaydi[2].

Ijtimoiy tadbirkorlar mamlakat qonunchiligida, iqtisodiyotida va ayniqsa, krizislar, pandemiyalar (masalan, COVID-19) kabi favqulodda vaziyatlarda ijtimoiy ehtiyojlarni tezda qondirishda katta ahamiyatga ega. Umuman olganda, ijtimoiy tadbirkorlik – bu pul ishlab topish bilan birga jamiyatni yaxshilashga qaratilgan "ikkita maqsad"li (dual-purpose) faoliyatdir. Ijtimoiy tadbirkorlik – bu yuridik shaxslar yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlarning aholini muayyan ijtimoiy muammolari va ularning oqibatlarini yengillashtirish yoki hal qilishga qaratilgan faoliyatdir.Ijtimoiy korxonaning ishiga asosan ijtimoiy jihatdan barqaror bo'lmagan yoki nogironligi bo'lgan shaxslar jalb etiladi. Ushbu korxona yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan tashkil etilishi loyihada ko'zda tutilgan.

Ijtimoiy tadbirkorlik tashkilotlari jamiyatdagi muayyan ijtimoiy yoki madaniy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi shaxsiy daromad orttirish emas, balki ijtimoiy foyda yaratishdan iboratdir. Bunday faoliyat

turlariga uysiz aholini uy-joy bilan ta'minlash, kambag'al oilalar a'zolari va nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash kabi tashabbuslar misol bo'la oladi. Ushbu jihati bilan ijtimoiy tadbirkorlik an'anaviy tadbirkorlikdan tubdan farqlanadi.

Ijtimoiy tadbirkorlikning amaliy asoslarini yaratgan shaxslardan biri Grameen Bank asoschisi va Nobel tinchlik mukofoti sovrindori Muhammad Yunus hisoblanadi[3]. U tomonidan ilgari surilgan mikrokredit tizimi ijtimoiy tadbirkorlikning global miqyosda keng tarqalishiga zamin yaratdi. Mazkur model Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida aholining zaif qatlamlarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynadi.

Ilmiy adabiyotlarda "ijtimoiy tadbirkorlik" tushunchasi ilk bor XX asrning 1950-yillarida shakllangan bo'lib, keyingi davrlarda mazkur kontseptsiya tobora keng rivojlanib bordi. Shu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlikni aniqlashda yagona yondashuv mavjud emasligi sababli, ushbu tushunchaning mazmunini belgilash muayyan murakkabliklarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotchilar tomonidan berilgan turli ta'riflar ijtimoiy tadbirkorlikning jamiyat uchun foydali bo'lgan jihatlarini turlicha talqin etish bilan izohlanadi.

J. G. Dees ijtimoiy tadbirkorlikni innovatsion va ijodkor yetakchilik natijasi sifatida baholab, unda shaxs omiliga alohida e'tibor qaratadi[4]. Uning fikricha, ijtimoiy tadbirkorlar jamiyatdagi mavjud muammolarni yangicha yondashuvlar orqali hal etishga intiluvchi shaxslardir. Shu bois, ijtimoiy tadbirkorlar turli kasbiy va ilmiy sohalardan yetishib chiqadi, bu esa ularning faoliyat doirasini yanada kengaytiradi.

Ba'zi olimlar ijtimoiy tadbirkorlarni "ijtimoiy innovatorlar" sifatida talqin qilib, ularning asosiy vazifasi jamiyatda barqaror ijtimoiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishdan iborat ekanini ta'kidlaydilar. Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini xayriya yoki grantlarga asoslangan tashabbuslardan farqlash zarur, chunki u o'zini o'zi moliyalashtira oladigan barqaror iqtisodiy modelga tayanadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar ushbu faoliyat doirasiga davlat buyurtmalari, grantlar va xayriya mablag'lari asosida amalga oshiriladigan loyihalarni ham kiritadilar.

Zamonaviy jamiyat sharoitida ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy kapitalni jamiyat manfaatlari yo'lida safarbar etuvchi mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday tadbirkorlik shakli foydani maksimal darajada oshirishga emas, balki ijtimoiy ta'sir va ijtimoiy qoniqishni kuchaytirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, ijtimoiy tadbirkorlar ijtimoiy muammolarni chuqur tahlil qilib, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar.

Ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy xususiyatlari qatoriga ijodkorlik, tadbirkorlik qobiliyati, ijtimoiy ta'sir va yuqori axloqiy mas'uliyatni kiritish mumkin. Ashoka tashkiloti asoschisi Bill Drayton ijtimoiy tadbirkorlarni aynan ushbu fazilatlar asosida baholash zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, ijtimoiy tadbirkorlar jamiyatda sog'lom o'zgarishlar qilishga intilib, mavjud holatdan qoniqmasliklari bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati qator muammolarga ham duch keladi. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi, investitsiya jalb qilishdagi qiyinchiliklar, malakali kadrlarni saqlab qolish muammosi hamda ijtimoiy va biznes manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurati shular jumlasidandir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari ko'pincha to'lov qobiliyati past bo'lgan aholi qatlamlariga xizmat ko'rsatgani sababli, an'anaviy biznes modellardan farqli yondashuvlarni qo'llashga majbur bo'ladi.

Ijtimoiy tadbirkorlik va an'anaviy tadbirkorlik o'rtasidagi asosiy farq ularning faoliyatdan ko'zlagan maqsadlarida namoyon bo'ladi. An'anaviy tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi foyda olish va kapitalni ko'paytirishdan iborat bo'lsa, ijtimoiy tadbirkorlikda foyda vosita sifatida qaralib, ustuvor maqsad ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratiladi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy qiymat yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, iqtisodiy samaradorlik ushbu ijtimoiy maqsadga erishishning vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu jihat ijtimoiy tadbirkorlikni an'anaviy tadbirkorlikdan tubdan farqlaydi. Muhammad Yunus ta'kidlaganidek, ijtimoiy biznes foyda maksimallashtirish emas, balki jamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy model hisoblanadi.

Shuningdek, an'anaviy tadbirkorlikda olingan foyda asosan tadbirkorning shaxsiy daromadini oshirishga yo'naltirilsa, ijtimoiy tadbirkorlikda foydaning katta qismi ijtimoiy loyihalarni kengaytirish va ijtimoiy ta'sirni kuchaytirishga yo'naltiriladi. Tadqiqotchilar Mair va Marti ijtimoiy tadbirkorlikni ijtimoiy muammolarni innovatsion yondashuvlar orqali hal etishga qaratilgan faoliyat shakli sifatida izohlaydi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati zaif ijtimoiy guruhlarni – nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan oilalar, yoshlar va xotin-qizlarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etish orqali inklyuziv rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. An'anaviy tadbirkorlikda esa ijtimoiy mas'uliyat ikkilamchi ahamiyatga ega bo'lib, ko'pincha korporativ ijtimoiy mas'uliyat doirasida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim innovatsion mexanizm sifatida namoyon bo'lib,

uning rivoji barqaror va inklyuziv iqtisodiyotni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohani ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish va amaliy mexanizmlarini takomillashtirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dees, J.G. (1998). The Meaning of Social Entrepreneurship. https://centers.fuqua.duke.edu/case/wpcontent/uploads/sites/7/2015/03/Article_Deess_MeaningofSocialEntrepreneurship_2001.pdf
2. OECD (2010). Social Entrepreneurship and Social Innovation. <https://www.oecd.org/cfe/leed/social-entrepreneurship.htm>
3. Yunus, M. (2007). Creating a World Without Poverty. <https://muhammadyunus.org/book/creating-a-world-without-poverty/>
4. Dees, J.G. (1998). The Meaning of Social Entrepreneurship. https://centers.fuqua.duke.edu/case/wpcontent/uploads/sites/7/2015/03/Article_Deess_MeaningofSocialEntrepreneurship_2001.pdf